

G'O'ZA (*G HIRSUTUM L*) O'RTA TOLALI TURIGA OID NAV NAMUNALARI TOLASINING SIFAT KO'RSATKICHLARI

Mamadali Kudratovich Lukov

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti dotsenti q. x. f. n

Jonibek Boyniyoz o'g'li Juraev

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti 2 bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Maqolada Issiq iqlimli Surxondaryo viloyatida bir xil tuproq sharoitda o'stirilgan o'rta tolali g'o'za turiga oid har xil nav va namunalarining tola sifatiga oid: tola chiqimi, uzunligi, uzilish kuchi, elastikligi, buraluvchanligi bo'yicha a farqlanishlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: G'o'za, o'rta tolali, navlar, namunalar. kelib chiqishi o'suv davri, tola chiqimi, tola, sifati, tola uzunligi, uzilish kuchi, buraluvchanligi, tola tipi.

KIRISH

O'zbekistonning janubi hisoblangan issiq iqlimli Surxondaryo viloyatining markaziy tumanlar sharoitida o'rta tolali g'o'za navlari yaxshi o'sib rivojlanadi va 30-35 s/ga hosil yetishtiriladi [4; 8; 10]. Bu viloyat sharoitida oqova suvning muntazam ravishda baqararor emasligi, bahor va yozda kuchli issiq shamol tez-tez bo'lib turishi hosildaorlik va tolaning sifatiga salbiy ta'sir qiladi [3; 10;]. G'o'za hosildorligi va sifatish yaxshilashda seleksioner olimlar zimmasiga qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tezpishar, yuqori ho silli va yuqori sifatli kaslliklar va zararkunandalarga chilamli, paxta hosilini yig'ishtirishda mexaniayai yordamida terimga moslashgan O'rtatolali g'o'zaning potensial hosildorligi 40-50 s/ga, tola chiqimi 37-38%, tola uzunligi 34-36 mm. navlar yapatish vazifalari qo'yilgan [1; 4; 5].

Surxondaryo viloyatining ekstremal sharoitida, yuqori harorat, tuproq sho'rlanishi, garmsel, suv tanqisligi, kabi noqulay sharoitlarga chidamli, tezpishar, kasallik va hashoratlar zarariga bardoshli, hosili mashina terimga mos kabi kompleks xo'jalik ahamiyatiga ega begi xususiyatli yangi navlarni yaratish dolzarb masala bhisoblanadi [3; 8; 10].

METODLAR VA MATERIALLAR

Dala tajribalari Surxondaryo viloyatini ingichka tolali paxtachilik ilmiy tadqiqot instuttining ilmiy tajriba xo'jalik

dalasida o'tkazildi. Dala tajribasi .cho'l qumoqli och tusli bo'z tuproqli, mexanik tarkibi yengil qumoqli, sizot suvining satxi 12-14 m oziq moddalar bilan kam ta'minlangan, tajribada obekt sifatida o'rta tolali g'o'zaning O'zbekiston seleksiyasiga oid 7 ta nav va namunalari, Xitoy davlati selksiyasiga oid 3 ta AQSh selksiyasiga oid-1ta, Afrika-1ta va Eron seleksiyasiga oid 1ta namunalari, jami 13ta nav va namunalardan foydalanildi. Bu nav va namularni taqqoslab o'rganish uchun Davlat reestriga kiritilgan hamda Surxondaryo viloyatida katta maydonlarda ekiladigan Beshqaxramon navi standart sifatida qabul qilindi. Ilmiy tadqiqotlar o'tkazishda O'zbekiston Paxtachilik ITI (2007y,) Davlat nav sinovi (1985 yil) Paxta seleksiyasi urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ITI metodlari va umum qabul qilingan metodlardan foydalanildi [6; 7].

NATIJALAR

O'rta tolali g'o'za turiga oid mahalliy sharoitda yaratilgan va xorijdan keltirilgan geografik uzoq bo'lgan nav namunalari tolasining chiqishi, tola uzunligi, uzilish kuchi chiziqli zichli, tola buraluvchanligi kabi sifat ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli darajada farqlanishlar aniqlandi. Tola chiqimi- tola massasining chigitli paxta massasiga bo'lgan foiz xisobidagi nisbatiga aytiladi Ekishga tavsiya etilgan o'rta tolali g'o'za navlarining tola chiqimi 32-40 % bo'ladi Biz o'rgangan (1 jadval) ma'lumotlarda Beshqahramon (standart) navi (36,6%) ga nisbatan Xitoy namunalari (K-1675) va (05305 cotton) va AQSh ning (U-Strain) nammunasida tola chiqimi, 3 % ko'p bo'lganligi aniqlandi. Tola uzunligi uning asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi..Tola uzunligi. tolaning ikki uchi oralig'idagi masofa mm bilan o'lchanadigan ko'rsatkichdir. O'rta tolali g'o'za navlarida o'rtacha 31-36 mm ga teng bo'ladi. O'rganilgan (1jadval) ma'lumotlarda namunalari tolasining uzunligi 28,4 mm.dan 40,4 mm.gacha bo'ldi. Eng uzun tolali namunalari Eron namunasi-5314342,(38,8 mm,) , Xitoy namunasi-05305 cotton, (38.6 mm.) O'zbekiston namunasi Okra III (40,4) bo'lsa kalta tolali (29,8 mm Guandun Xitoy va 29,1 mm va 8517 O'zbekiston) namunasi bo'ldi.

Uzilish kuchi tolaning muhim sifat ko'rsatkichi bo'lib, bitta tolani cho'zganda uzilish uchun sarf bo'lgan kuchdir. Bu ko'rsatkich gk (gramm kuch) yoki SN (Santa Nyuton) ko'rsatkichi deb ifodalanadi. Uzilish kuchi O'rta tolali g'o'za navlarida 4.3-4.9 gk ga teng bo'ladi [1; 2].

Tahlil qilingan (1jadval))ma'lumotlar bo'yicha tolaning uzilish kuchi 3,9 gk.dan-5,1 gk.gacha bo'ldi. Shuningdek tola buraluvchanligi ko'rsatkichi bo'yicha ham yuqorida ko'rsatilgan Xitoy namunalari (K-1675) va (05305 cotton) va AQSh ning (U-Strain)

namunasi, O'zbekiston C-3210 R2 namunasi tolasinng buraluvchanligi ko'p, ya'ni (1 mm uzunlikda 11-12 marta) ekanligi aniqlandi.

G'o'zaning tola sifati yuqorida qayd etilgan va jadvaldagi ma'lumotlar bo'yicha tola tipi belglandi. Tolasi yuqori sifatli namunalr IV tip va tola sifati yaxshi namunalar 5 tipga oid bo'lib hisobga olindi.

XULOSALAR

O'rta tolali g'o'za turiga oid mahalliy sharoitda mavjud va chet davlatlar selksiyasiga oid geografik uzoq bo'lgan nav va namunalar tolasining chiqimi, uzunligi, uzilish kuchi kabi belgilari har xil sifat ko'rsatkichlarga ega.

Tolasi yuqori sifatli bo'lgan IV tipga oid:- Xitoyning (K-1675) va (05305 cotton) va AQSh ning (U-Strain) ,O'zbekiston (C-3210 R2) kabi namunalarni seleksiya ishining navbatdagi ya'ni keyingi ko'chatzor va nav sinashlarida sinash va baholashlarni davom ettirish tavsiya etiladi.

1-jadval

O'rta tolali g'o'za nav va namunalarning tolasining texnologik sifat ko'rsatkichlari

№	G'o'za nav va namunalar.	Kelib chiqishi,	Tola chiqimi %	Tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlari				
				uzunligi mm	Uzilish kuchi, gk	Nisbiy uzilish kuchi, gk'teks	Tola buraluvchanligi	Tola tipi
1	Besh qahramon (andoza)	O'zbekiston	36,4	35,1	4,8,	31,4	10-11-	V
2	K-1675	Xitoy	37,7	36,6	4,8	32,3	10-11	V
3	8517	O'zbekiston	36,9	29,1	4,5	29,0	10-11	V
4	Neslipshiyssa	O'zbekiston	34,3	30,1	4,7	30,6	11-12	IV
5	Okra II	O'zbekiston	35,7	30,4	5,1	30,2	11-12	IV
6	Okra III	O'zbekiston	38,5	40,4	4,7	32,0	11-12	IV
7	K-3477	O'zbekiston	30,3	31,4	4,8	29,7	11-12	IV
8	6095-U	O'zbekiston	33,7	30,1	4,6	27,5	9-10	V
9	C-3210 R2	O'zbekiston	38,8	39,6	4,8	30,8	10-11	V
10	Besh qaxramon (andoza)	O'zbekiston	36,6	35,1	4,5	31,2	10-12	IV
11	05305 cotton	Xitoy	38,6	40,2	4,6	33,0	10-11	V
12	U-Strain	AQSh	39,9	30,2	4,4	32,4	11-12	IV
13	5314342	Eron	36,2	38,8	4,1	30,5	10-12	IV
14	Guandun 1	Xitoy	32,4	29,3	3,9	27,5	10-11	V

REFERENCES

1. Abdulkarimov D.T., Lukov M.K. G'o'za seleksiyasi va urug'chiligi .- T.: 1987. – S. 22-101.
2. Abdulkarimov D.T.- va boshq.Umumyseleksiya va urug'chilik T.: 2021. – 36-37.b.

3. Amanturdiyev A.B, Kim R.G, “Struktura kusta i yeyo vzaimosvyaz s morfohozyastvennymi priznakami i viltoustoychivostyu xlopchatnika vida Goss Hirsutum L” Izd.-stvo “Fan” Akademii nauk res. Uzbekistan Tashkent 2011. S258.
4. Abduraximov. N., Qo‘chqorov.O .Sara urug‘ mo‘l xosil garovi./O‘zbekiston qishloq xo‘jalik jurnali /Toshkent. 2001 yil. №3 34-35 bet.
5. Atabaeva X.N., Xudoyqulov J.B. O‘simlikshunoslik. Toshkent. 2018. – B. 259-282.
6. Ботиров, А. Э., Бойжонов, У. М., & Рустамова, Г. А. (2022). ШАФТОЛИНИНГ ТУРЛИ НАВЛАРИНИ КАСАЛЛИК ЗАРАРКУНАНДАЛАРГА ҚАРШИ ЧИДАМЛИЛИГИНИ ЎРГАНИШИНИНГ ИЛМИЙ АСОСЛАРИ. Academic research in educational sciences, 3(7), 176-182.
7. Botirov, A. E., & Xalmirzayeva, L. B. (2022). UNABI (ZIZIPHUS MILL): DEVELOPMENT, RECENTLY AND NOWADAYS. Academic research in educational sciences, (Conference), 194-198.
8. Tojiev.M, Yangiboev A.A, Boltaev S.M va boshqalar Surxondaryo viloyatida g‘o‘za va g‘o‘za majmuidagi qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli xosil yetishtirish agrotexnologiyalari bo‘yicha tavsiyalar. “Surxon nashr” MChJ. Termiz. 2017y. 87 b.
9. O‘zbekiston respublikasi xududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xshjalik ekinlari davlat reestiriga kiritilgan navlarning Tavsifi Toshkent 2017 y.
10. Jo‘raev Boyniyoz Chorievich “Kachestvo semyan i urajaynost xlopchatnika”. Vestnik semenovodstva SNG, g. Moskva, 2002 god №3, st 31-33.
11. Qo‘ziboev Sh.S Mamaraximov B.I “G‘o‘za urug‘chiligini takomilashtirish omillari” Toshkent 2013 y 308 b.

